

Tadjiyeva Umida
Oriental nodavlat universiteti “Sharq tillari”kafedrasi o’qituvchisi
umida.fayziyeva@mail.ru

HADISLAR ASOSIDA YUZAGA KELGAN O’ZBEK XALQ MAQOLLARINING ARAB XALQ MAQOLLARI BILAN LINGVOMADANIY TAHLILI

Annotatsiya: Islom dini paydo bo’lgandan so’ng arab xalqida ham, o’zbek xalqi hayotida ham tub burilish yasadi. Bu ularning madaniyati hamda folkloriga ham o’z ta’sirini o’tkazmay qolmadi. Folkloarning bir qismi bo’lmish maqollarda Qur’oni Karim oyatlari hamda Hadislardan na’munalar qo’llanila boshladi. Islom dini xalq hayoti, e’tiqodida muqim o’rin egallagandan so’ng Islom dini asosida yuzaga kelgan maqollar har ikki xalqning hayotida ajralmas qismga aylandi. Ushbu maqola shunday maqol va hikmatli so’zlar yoritilib beriladi.

Kalit so’zlar: Qur’oni Karim, Hadis, lingvomadaniy tahlil, maqollar, iboralar.

Annotation: After the appearance of Islam, it made a radical change in the life of the Arab people and the Uzbek people. This had an impact on their culture and folklore. Examples from the verses of the Holy Quran and Hadiths began to be used in proverbs, which are a part of folklore. After the religion of Islam took a permanent place in the life and faith of the people, the proverbs created on the basis of the religion of Islam became an integral part of the life of both peoples. This article will highlight such proverbs and wise words.

Key words: Holy Qur'an, Hadith, linguistic and cultural analysis, proverbs, expressions.

Qur’oni Karimdan so’ng musulmon olami uchun muqaddas bo’lgan kitob, Hadislar hisoblanadi. Hadis-payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning gapirgan gaplari va qilgan ishlarining namunasidir. Hadislar insonlar uchun islam dining qoidalariga amal qilgan holda, yaxshilikka o’rgatuvchi dasturul amaldir. Huddi Qur’on oyatlaridek, Hadislar ham arab xalqi maqollar va xikmatlar tarzida avloddan-avlodga o’tib kelmoqda.

«لَا ضَرَرَ وَلَا ضِرَارٌ»

Hech qanday sababsiz birovga ozor yetkazib bo’lmaydi, shuningdek, javob tariqasida ham ozor berib bo’lmaydi. (an-Navaviy).

فِي كُلِّ كَيْدٍ رَطْبَةٌ أَجْزٌ

Xar qanday tirik jonga yaxshi munosabatda – mukofot bor. (Buxoriyning sahib hadislari).

الجنة تحت اقدام امهات

Jannat onalar oyog’i ostidadir.(al- Xatib).¹

So’nggi maqol o’zbek tilida ham keng qo’llanilib keladi. O’zbek xalqi ham onalarni ulug’lab, “Jannat onalar oyog’i ostidadir”, Otangni kaftingga tutsang, onangni boshingda tut” kabi

¹ Зарипова А. М. Арабские паремии как этнокультурный феномен. - Казань. 2018. -B 20

maqollar mavjud. Shuningdek, Hadis asosida yuzaga kelgan “Yaxshilikni eng avvalo onagga, so’ng esa otangga va yaqin qarindoshlaringga qilgin” maqollari ham keng qo’llaniladi.

المَرْاحَةُ تُذَهِّبُ الْمَهَابَةَ

“Hazlkashlik obro’ni tushuradi”. Ya’ni inson qancha ko’p hazl qilsa, obro’si shuncha tushib boradi. Umar bin abdul-Aziz alayhis-salom shunday deydilar:

“ Hazdan yiroq bo’ling, u nafratni keltirib chiqaradi”,-deb aytganlar.

Abu Ubaydning naql qilishicha “Bir halifa qo’l ostidagilardan biriga ikki ko’ylakning birini olishini taklif qilgan ekan. Shunda u kishi “ har ikkisini olaman yana xurmoni ham “ deya hazl qiladi. Shunda halifaning jaxli chiqib “ hali mening xuzurimda hazl qilayapsanmi?” deb hech narsa bermagan ekan”. Shundan keyin yuqorida keltirilgan maqol yuzaga kelgan.² .

إِنَّ الْمَعَاذِيرَ يَشُوُّبُهَا الْكَذِبُ

“O’zini oqlash har doim yolg’on bilan aralashadi”.

Ibrohim Naxagiy bir insonga shunday degan ekan: ”Sening uzringni hech qanday oqlashlarsiz qabul qilaman. Chunki o’zini oqlaganda yolg’on aralashadi”.

أَمْسِكْ عَلَيْكَ نَفَقَتُكَ

“Harajatlarining qisqartiring”. Ushbu maqol nafaqat mablag’ tomonidan, balki so’zlarga ham ishlatalidi. Abu Ubeyda “tinmay gapirayotgan insonga” shunday degan ekan.

الْحِكْمَةُ ضَالَّةُ الْمُؤْمِنِ

“Hikmat musulmon insonning topilmasidir”. Ya’ni mo’min odam har yerdan hikmat izlaydi.

Xalqimiz tilida tez-tez qo’llanib turadigan quyidagi maqol mazmuni ham diniy afsonaga asoslanadi: Sulaymon o’ldi, devlar qutuldi. Sulaymon payg’ambar “Baytul muqaddas” ni qurdirganda devlarni majbur qilib ishlatgan emish. U to imorat bitguniga qadar hech qayoqqa qimirlamay, hassaga tayanib turganmish. Devlar Sulaymonidan qo’rqqanlaridan hech qayoqqa ketmay, noiloj ishlayverishibdi. Sulaymon turgan joyida turib o’lib qolsa ham, devlar buni payqamabdilar. Nihoyat, jasad bir yoqqa ag’anab tushgach, devlar har tarafga qochib ketishibdi.³

Shuningdek, diniy tushunchalar orqali kirib kelgan maqollar Zahiriddin Muhammad Bobur qit’alarida ham maqoldan mahorat bilan foydalanilgan.

Jumladan, quyidagi qit’aga e’tibor qilsak:

Otani chunki qibla debturlar,

² Арабские пословицы и поговорки, : Абуль-Фадль аль-Майданий (умер в 518 году по мусульманскому летоисчислению) Перевод с арабского: Ильнур Сарбулатов (abusylyman@yandex.ru). –В 27.

³ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. - Toshkent, 1990. –B 379 .

Qibla yanglig‘ anga nazar qilg‘il.

Ota og‘ritma, ey odam, zinhor,

Ota ozoridin hazar qilg‘il⁴.

Qur’oni karimda ham, Hadisi sharifda ham farzandning ota-onas oldida tavozeli bo‘lishi ko‘p ta‘kidlangan. Buning ta’sirida “Ota oldida kek urma, odobingga chek urma”, “Ota oldidan o‘tma, odob oldidan ketma” kabi maqollar yuzaga kelgan. Boburning yuqoridagi qit’asida xalq maqollaridagi mazmun asos bo‘lgan. Chunki shoir qit’a boshlanmasida “Otani chunki qibla debturlar”, – deya iboraning xalqqa qarashli ekaniga ishorat qiladi. Keyin iborani sharhlab, yakuniy xulosada “Ota ozoridin hazar qilg‘il”, - deb xalqning “Otasini og‘ritgan el ichida xor bo‘lar” maqoliga etib bog‘laydi. Ko‘rinadiki, bu qit’ada xalq maqoli va shoir o‘giti omuxtalashib go‘zal bir ibrat hosil bo‘lgan⁵. Islom dini o‘zbek xalqining ham qon-qoniga singib ketgan bo‘lib, diniy tushunchalar asosida bir necha maqollar yuzaga kelgandir:

“O‘ttiz kun ro‘zaning bir kun hayiti bor”.

Ro‘za (forscha) – islomdagi beshta rukn (majburiyat)dan biridir. Ro‘za tutish vaqtin tong yorishmasdan avval boshlanib, kun botishiga qadar davom etadi. Bu vaqtda yeyish, ichish, jinsiya yaqinlik qilish, noma‘qul ishlardan tiyilish zarur. Qur’onda Allah Muhammad (s.a.v.)ga Qur’onni ramazon oyida vahiy qilib yuborgani, har yili shu oyda ro‘za tutish farzligi qayd etilgan. Maqolda sabrning oxiri hamisha xayrli bo‘ladi, – degan g‘oya ilgari surilgan.

“Jahannamga kimxob kiyib borgandan

Jannatga juldur kiyim kiyib borgan afzal”.

Jahannam [(do‘zax) – qadimiyl somiy va yahudiy tillaridagi gexennem (jazolanadigan joy) so‘zidan arab manbalariga o‘tgan] – ko‘pchilik dinlarning ta’limotiga ko‘ra, din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joy.

Jannah (arabcha – bog‘) – barcha dinlarda taqvodor dindorlar narigi dunyoda rohat-farog‘atda yashaydigan joy, gunohkorlar uchun belgilangan do‘zaxning aksi. Boradigan joyingiz, kutadigan natijangiz ezgu bo‘lmasa-yu, ammo sizga yaxshi foyda bersa, yaxshi yashashga imkon yaratса, bu yo‘l to‘g‘ri va maqbul emas. Haqiqat yo‘li esa olis, mashaqqat, qiyinchiliklarga to‘la bo‘lib, oxir-oqibat insonni nurli manzilga yetkazadi.

“Yomg‘ir bilan yer ko‘karar, Duo bilan – el”.

Duo (arabcha – iltijo) – xudoga yolvorib, o‘zi yoki boshqalar uchun tilak tilash, Qur’onning sura oyatlaridan o‘qib, so‘ngra Allahga iltijo qilish deganidir. Azaldan “Duoni qariyalar, keksalar qilishadi. Keksalarning qilgan duosi, albatta, ijobat bo‘ladi”, degan fikr o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. Maqol majozan “savobli ishlarni bajargan insonning ishi rivoj topadi”, degan mazmunda qo‘llanadi.

⁴ Bobur Zahiriddin Muhammad. Sochining savdosi tushti. – Toshkent: Sharq, 2007. – B. 221.

⁵ Rahmatov Y. Maqol va uning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi evolyutsiyasi. DSc ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya. Toshkent – 2023. –B 195.

“Qiyomat kuni qo‘shnidan”.

Qiyomat – arabcha diniy atama, diniy e’tiqodlarga ko‘ra, bu dunyo tugagach, u dunyoda hamma tirilib, so‘roqqa tutiladigan kun bo‘lib, oxirat, mahshar deganidir. Bu maqol qo‘shnichilik munosabatlari haqida bo‘lib, agar qo‘shni yomon bo‘lsa, ya’ni fisq-u fujur tarqatib yuruvchi, ig‘vogar kishi bo‘lsa, oilangizdagи kichkina gapni ham ko‘chaga chiqaradi va sizni el oldida uyatga qo‘yadi, degan mazmun bilan birga yaqiningdagи kishilardan ehtiyyot bo‘l, – degan ma’noni ham ifodalaydi.

“Bir ko‘ngil imorati,

Ming Makka ziyorati”.

Makka – Saudiya Arabistonidagi shahar, Hijoz viloyatining ma’muriy markazi. Islom paydo bo‘lgunga qadar Makka majusiy arab qabilalarining diniy va katta savdo markazi bo‘lgan. Islom vujudga kelishidan ko‘p asrlar ilgari Makkadagi Ka’ba ibodatxonasi arab qabilalarining ziyorat markazi bo‘lgan, unda qabila xudolarining sanamlari saqlangan. VII asrda islom paydo bo‘lgach, Makka islom diniy markaziga, Ka’ba musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylangan. Ziyorat (arabcha – biror yerga borish) – islom dinida muqaddaslashtirilgan mozorlar va qadamjoylarga borib sig‘inish. Aslida ilk islomda bunday e’tiqod bo‘lmagan. Keyinchalik islom dinining feodal tuzum ideologiyasi sifatida shakllanishi jarayonida avliyolar va ularning mozorlariga, qadamjoylarga sig‘inish, u yerlarni ziyorat qilish, jonlik so‘yish, chiroq yoqish, chalpak qilish va boshqa diniy urf-odatlar keng tus olgan. Maqolda inson ko‘nglini ko‘tarish, ular qalbiga ozor bermaslik juda ulug‘ ish ekanligiga da’vat etilgan⁶.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Islom dini arab va o‘zbek xalqi uchun umumiylar bo‘lganligi, har ikki xalqning ham ushbu dingga e’tiqodi kuchli bo‘lganligi uchun Qur’oni Karim oyatlari va Hadislardagi pand-nasihatlar xalq hayotiga kuchli singib ketganidan maqol va matallarga aylangandir. Ushbu turdagи maqollar, Qur’on oyatlari bilan tavsiflanib, o‘zining ta’sir doirasini yanada kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Mirzayev T, Turdimov SH. O’zbek folklori. Toshkent-2020.
2. Lebedev V.V. Арабские пословицы в рукописях собрания Фирковича.Москва 1979.
3. Zaripova A. M. Арабские паремии как этнокультурный феномен. - Казань. 2018.
4. Shomusarov Sh. Arab va o‘zbek folklori tarixiy-qiyosiy tahlili. Toshkent 2002.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. - Toshkent, 1990.
6. Rahmatov Y. Maqol va uning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi evolyutsiyasi. DSc ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan dissertatsiya.

⁶Jo‘rayeva B.O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari dok.dissertatsiyasi. –B 113.